



HISTORY OF SOCIO-ECONOMIC LIFE OF KATTAKURGAN DISTRICT

Nurolim Kenjayev

PhD student

*Sharaf Rashidov Samarkand State University
Samarkand, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: A. Vamberi, A. Yakubovsky, G.A. Pugachenkova, Abulkasim, Alijon, Girdikurgan, Durbesh, Kattakorpa, Kattaming, Kikmindon, Jumaboy, Moybulok, Omonboy, Saraikurgan, Yangikurgancha, Koshtepa, Uishun, Shurak, Murtak, Zarafshon, Kadan.

Received: 14.04.25

Accepted: 16.04.25

Published: 18.04.25

Abstract: The article examines the socio-economic life of the Kattakurgan region, its population, the ancient period, the Middle Ages, the period of the Bukhara Emirate, the Soviet Union, as well as the history of the construction of the Kattakurgan reservoir.

KATTAQO'RG'ON TUMANI IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI TARIXI

Nurolim Kenjayev

tayanch doktorant (PhD)

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Samarqand, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: A. Vamberi, A. Yakubovskiy, G.A. Pugachenkova, Abulqosim, Alijon, Girdikurg'on, Durbesh, Kattako'rpa, Kattaming, Kikmindon, Jumaboy, Moybuloq, Omonboy, Saroyqo'rg'on, Yangiqo'rg'oncha, Qo'shtepa, Uyshun, Shuraq, Murtak, Zarafshon, Kadan.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Kattaqo'rg'on tumani ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, aholisi, Qadimgi davri, O'rta asrlar davri, Buxoro amirligi davri, Sovet ittifoqi davri, Kattaqo'rg'on suv ombori qurilishi tarixi haqida so'z boradi.

ИСТОРИЯ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ КАТТАКУРГАНСКОГО РАЙОНА

Нуролим Кенджиев

базовый докторант (PhD)

*Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова
Самарканд, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: А. Вамбери, А. Якубовский, Г.А. Пугаченкова, Абулкасим, Алиджон, Гирдикургган, Дурбеш, Каттакорпа, Каттаминг, Кикминдон, Джумабой, Мойбулок, Омонбой, Сарайкурган, Янгикурганча, Коштепа, Уйшун, Шурак, Муртак, Зарафшон, Кадан.	Аннотация: В статье рассматривается социально-экономическая жизнь Каттакурганского района, его население, древний период, средние века, период Бухарского эмирата, Советского Союза, а также история строительства Каттакурганского водохранилища.
---	---

Kattaqo‘rg‘on shahari tashkil topgan vaqtı 1868 yil. Kattaqo‘rg‘on – Samarqand viloyatidagi shahar va qishloq tumani nomi. Zarafshon vodiysining tekislik qismida, Narpay kanalining chap soxilida joylashgan. Arxeologik qazilmalar shaharning qadimigi boy madaniyatidan darak beradi. B.Kastolskiyning o‘tqazgan arxeologik qazilmalar vaqtida assuariya-sopol tobutlar topildi. Toponim katta va qo‘rg‘on so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, «katta shahar, katta qal‘a» demakdir. E.Mirzaev Katta so‘zini fors tilidagi kanta (o‘ralgan, qazilgan) so‘zi bilan bog‘laydi. Q’o‘rg‘on «tepalik» degan ma’noda bo‘lib, Kattaqo‘rg‘on tepalikdagi shahar, tepadagi istexkom» degan ma’noni bildiradi.

Kattaqo‘rg‘on tumani – O‘zbekiston Respublikasi Samarqand viloyatidagi tuman. 1926 yil 278- sentyabrda tashkil etilgan. Shimoldan Narpay, sharqdan Nurobod, g‘arbdan Narpay, sharqdan Pastdarg‘om, shimoli-g‘arbdan Navoiy viloyatining Xatirchi tumanlari bilan chegaradosh maydoni 1,47 ming km 2. Tumanda 3 shaharcha Kadan, Suv Ombori, Payshanba va 17 qishloq fuqarolar yig‘ini (Abulqosim, Aljon, Girdikurg‘on, Durbesh, Kattako‘rpa, Kattaming, Kikmindon, Jumaboy, Moybuloq, Omonboy, Saroyqo‘rg‘on, Yangiqo‘rg‘oncha, Qo‘shtepa, Uyshun, Shuraq, Murtak, Zarafshon, Kadan shaharchasi.

Madaniyati – Shaharda « Abdulxamid Majidiy» nomli o‘zbek dramma teatiri faoliyati yuritiladi. 1970 – yilda Kattaqo‘rg‘on tergov izolyatorida «Djentelmeni udachi» (Omadli jentelmenlar) filmining suratga olish jarayoni bo‘lib o‘tgan.

Axolisi – asosan o‘zbeklar, shuningdek tojik, rus, tatar, qozoq, koreys, arman va boshqalar millat vakillari xam yashaydi. [1]

Iqtisodiyoti – Kattaqo‘rg‘onda yog‘-moy, go‘sht, sut-moy, non, un kombinatlari, paxtachilik uchun mashinalar ishlab chiqaradigan «Paxtamash» zavodi, g‘isht, paxta tozalash zavodlari, meva konservalash, qandolatchilik, maxalliy sanoat korxonalari, oxak, mebel, badiiy kulolchilik sexlari, madaniy, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shaxobchalari ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Kattaqo‘rg‘on pillachilik zavodi (grens), volframni boyitish va qayta ishslash zavodi («ingichki Metals» QK) faoliyat ko‘rsatmoqda.

XVIII asrdan boshlab Kattaqo‘rg‘on shahari ancha kengayib 170 hektar maydonni egallagan. Shaharda dastlab Sufi Olloyor, Madarasa va Kuchaxur guzarlari (maxallalari) paydo

bo‘lgan. Keyincha maxalla-guzarlari srni 25 taga yetgan. Arabxona, Bozormachit, Damiyon, Katta arabxona, Kul, Kurpa, Kuchaxur, Kuxnadam, Madrasa, Mavrikurgan, Merroxur, Murod, Kosim, Xoji Latif, Xoki, Chordara, Shur, Eshonmozorlar shular jumlasidan. 1926 yil 9 yanvar kuni O‘zbekiston xukumatining qaroriga binoan Kattaqo‘rg‘on tumani tashkil etildi. Tuman tarkibiga 12 ta. Yaniy Amonkalxat, Jom, Chimboy, Kalli kurgoni, Kushkuduk, Chichkonchi, Moshrabot, Ulus, Kattakurpa, Saroykurgan, Kilichli, Yangikurgan, fuqorolar yig‘inidan iborat bo‘lgan. Xar bir maxalla guzarining nomi o‘ziga xos bo‘lib. Ularning nomi tabbiy- tarixiy xususiyatlari, sharoitlari, shu yerda yashab, uni obod qilgan kishilar nomiga qo‘yilgan.

Qadimgi davri : Ko‘pgina arxeolog qazilmalar qadimgi Kattaqo‘rg‘onning boy madaniyatidan darak beradi. 1908 - yilda o‘tkazilgan arxeologik qazishmalar vaqtida ossuriya (sopol tobut)lar topiladi. Ossuriyalarda odam suyaklari va dafn marosimlaridagi diniy urf odatlarni tasvirlovchi rasmlar saqlanib qolgan. 1958 yilda Kattaqo‘rg‘ondan 7 km g‘arbdan kondan yog‘och sandiq qoldiqlari chiqdi. Sandiqning mis bezaklarida kadimgi shahar madaniyati aks ettiruvchi rasmlarni ko‘rish mumkin. Jezdan ishlangan korachirok va ayollar taqinchoqlari topilgan. Makedoniyalik Iskandar Samarqandni vayron qilgandan keyin, Kattaqo‘rg‘on ancha muddat So‘g‘dning siyosiy markazi bo‘lib turgan.[2]

O‘rta asrlar davri: Kattaqo‘rg‘ondan biroz g‘arbroqda qadimgi madaniyat o‘chog‘i bo‘lgan Rabinjon shahari qoldiklari aniqlanadi. 12- asrda uni Xorazimshox El Arslon egallagan. Rabinjon shaxridag unchalik uzoq bo‘lman joyda qadimi Kushoniya shaxri bo‘lgan. Xozirgi Kattaqo‘rg‘on (eng qadimi qismi) eski shahar XVII asirning oxirgi choragida « 1683 -1684) tashkil topgan. Rivoyatlardan birida aytishicha, shaharning paydo bolishi tarixiy amir amaldorlari – o‘zbek kitay oilasidan chiqqan aka uka farxod otaliq, Ala Nazarboy va Sufiy Olloyorlarga tegishli. Sufi Olloyor qurilishi uchun joy tanlagan va shayx xuzuriga fotixa uchun ketgan. Farxod otaliq esa akasining qaytishini kutmay, tepalik ustida katta kal’la qurishgan. Kaytib kelgan Sofi Olloyor tepalikda katta shaharni kurib, xammasi usiz boshlanganidan g‘azablanib, G‘uzor bekligiga junab ketgandi va u yerda 1721 -yilda vafot etadi. Bu yerdagi axoli punkti Kattaqo‘rg‘on nomi bilan mashxur bo‘lib, o‘zbek tilidan «buyuk kal’ा» deb tarjima kilingan. Farxod otaliqning o‘zi dastlabki Kattaqo‘rg‘onda oilasi va xizmatkorlari bilan yashagan. Vaqt o‘tishi bilan axoli punkti kengayib, tepalik yangi xududlar bilan kengaytirilib, devor bilan o‘ralgan va istexkom O‘rda deb atala boshlagan.

Buxoro amirligi davri: XVIII asrda Kattaqo‘rg‘on ancha katta shahar bo‘lgan (170 ga joyni egallab, 25 guzarga bo‘lingan). Shahar paxsa devori bilan o‘ralib, To‘rt darvozasi bo‘lgan; Janub tomonida Samarqand darvoza, Sharqdan Aydar Charvon darvoza, Shimolda – bozor darvoza. G‘arbda Buxoro darvozasi. Shahar markazida ka’la joylashgan. Masjidlar va diniy maktablar faoliyat ko‘rsatgan. Axoli g‘isht pishirish, kunjut va paxta yog‘lari ishlab chiqarish, paxta tozalash,

zargarlik, kosibchilik xunarlari bilan shug‘ullangan. XIX asrda Kattaqo‘rg‘onda bitta madrasa va bir necha masjidlar bo‘lgan. Axolisini tarkibini o‘zbeklar, arablar, tojiklar, yaxudiylar, lulilar va boshqalar tashkil qiladi. [3] A.Vamberning yozishicha Kattaqo‘rg‘onda amirlikning eng yaxshi etikdo‘zları yashagan. Kattaqo‘rg‘onni rus bosqinchilari egallagunga qadar shahar Buxoro amirligi tasarrufida bo‘lgan. 1868 -yilda Buxoro amirligi mag‘lubiyatga uchragach, Kattaqo‘rg‘on Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgan. Keyinchalik Samarcand viloyatida tuman shahar maqomiga ega edi. 19-asr oxirida Krasnovodsk (Turkmanistonagi Turkmanboshi shahari) Samarcand temir yul qurilishi bilan shahar sanoati rivojlana boshladi. 1890- yil bug‘ dvigatevi bilan ishlaydigan paxta tozalash va 1896- yil pressli yog‘ zavodlari tushadi.

Sovet ittifoqi davri: Ikkinci jaxon urishi Kirisanovdan Gomel xarbiy piyodalar bilim yurti Kattaqo‘rg‘on shahariga kuchirildi. 1946- yilda suv ombori qurilishi chog‘ida yaxshi loyixalashtirilgan ventilyatiyasi va ko‘plab loy xumlari bo‘lgan yer osti labirint xonalari ko‘rinishidagi katta zardushtilik qabri topilgan.

Kattaqo‘rg‘onning yoshi 2 ming yildan ortiq. Bu yerda onlab tarixiy joylar, masjid-u madrasalar, qal’alar bor. Shahardagi Saripul qalasining tariximizda o‘z orni bo‘lgan. 1501 yilda bu yerda Shayboniyxon bilan Mirzo Bobur o‘rtasida janglar bo‘lgan. Buyuk shox va shoir bu xudduda ancha muddat turgan. Kattaqo‘rg‘onning tarixga aloqador yana bir yodgordik Robinjon shaxridir. I-V asrlarda Sug‘diyona somoniylar davlati tarkibiga kirgan. Robinjon butun sharqda uzinining «Rabinjoni» degan nafis gazlamasi bilan mashxur bulgan. Kattaqo‘rg‘on shaxri bu o‘lkada 2500 yillar ilgari yaratilgan shaharsozlik madaniyatining (Kushoniya, Robinjon, Korzon va Pay) maxsuli sifatida paydo bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Makedoniyalik Iskandar Samarcandni vayron qilgandan keyin Kattaqo‘rg‘on bir muncha muddat Sug‘dning siyosiy markazi bo‘lib turgan. XVII asrning ikkinchi yarimida Kattakurgon shahariga asos solinadi. Shahar asta-sekin kengayib, obodonlashib bordi. Shahar atrofi baland mudofa devori bilan o‘ralgan va uning to‘rt tomonida to‘rt: Bozor-darvozasi, Xaydarchaman, Samarkand, Buxoro darvozalari bo‘lgan. Bu darvozalar kechalari berkilgan. Shahar gullab-yashnagan. XVIII asr oxirlarida Kattaqo‘rg‘on kengaya boradi. XVII asr oxirlarida qad ko‘tarilgan Qalandarxona, Begijon guzari, Eshon mozor, Sarmozor va Past Chordara masjidlari moziydan xabar berib turgan. Bugun esa bu tarixiy inshootlar o‘ta xarob axvolda, qulab tushish arafasiga kelib qolgan. Davlatimiz mustaqillikka erishgan yillardan xoxirgacha bu «ochiq osmon ostidagi muzeylar» e’tibordan chetda qoldi. [4] Prezidentimiz tomonidan 2018 yil 19 dekabrdan qabul qilingan «Moddiy-madaniy merosi ob’ektlarini muxofaza qilish soxasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorda O‘zbekiston xalqining umummilliy boyligi xisoblangan madaniy merosimizni muxofaza qilish, ilmiy o‘rganish va undan foydalanish qat’iy belgilangan.

Robinjon, Arbinjon-So‘g‘dning qadimgi shaharlardan biri. Samarqand shahardan 100 km g‘arbdan, Fay(Pay) kanali bo‘yida joylashgan. Robinjon xarobalari Narpay tumanidagi Kuxna Oromjon shaxri xarobasi o‘rnida bo‘lgan deb taxmin qilingan. Robinjoni A.Yakubovskiy (1934), G.A.Pugachenkova(1969), shuningdek O‘zbekiston fanlar akademiyasi arxeologiya instituti xodimlari (1971-1973) o‘rnashgan. Shahar to‘rtburchak qush devor va xandaklar bilan o‘ralgan mustaxkam qal’adan iborat. Narpay qanali qirgoqda joylashgan aloxida qo‘rg‘on bo‘lgan. Qal’a uch tomonidan shaxriston va mudofa devorlari bilan urab olingan. Xovuz bozor av xunarmandchilik ustaxonalari joylashgan shaharistonning janubiy tomonida koshinkorlik va ma’dan eritish korxonalari bulgan. Shaxriston va rabod xududlarida kanal o‘tgan. Shahar xayotining dastlabki davri 4-7 asrlarga to‘g‘ri keladi. Shu davrga oid binokorlik qoldiqlari, xaykaltaroshlik namunalari, oltindan ishlangan ziynat buyumlari saqlangan. 9-10 asrlarda Robinjon yaqin va uzoq sharq mamlakatlari bilan Movarounnaxni bog‘lab turadigan yirik shaharga aylangan. Bu yerda kadimgi Sugd san’ati namunasi saklangan uy va 10 asrning 1-yarimiga oid 44 ta oltin tanga toplgan. 1158 yilda Xorazmshox El arslon qo‘s Shinlari bilan Samarqandning koraxoniylar xukumdori Chag‘rixon qo‘s Shinlari o‘rtasida jangdan so‘ng Robinjon vayronaga aylangan.

Kattaqo‘rg‘on shaharida jami 23 ta madaniy meros ob’ektlari mavjud bo‘lib, ularining ko‘philigi ta’mirtalab axvolga tushgan. Kattaqo‘rg‘on shahar xokimi G. Alimovaning taklifiga binoan ushbu madaniy meros ob’ektlari xolatini urchanish maqsadida madaniyat vaziri urinbosari K. Okilova boshchiligidagi madaniy merosni o‘rganish buyicha ekspertlar guruxi shaharga «Kichik Arabxona» masjidi xamda Ziyolilar maxallasidagi «Sarbozor» masjid binolari o‘rganib chiqildi. [5]

Kattaqo‘rg‘on suv ombori-Igidrotexnik inshooti O‘zbekiston birinchi qurilgan suv ombori. Kattakurgon shaxri yakinida tabbiy chukurlikda barpo etilgan. Kattaqo‘rg‘on suv ombori Zarafshon vodiysidagi ekin maydonlarini suv bilan ta‘minlaydi va Zarafshon (Koradaryo) daryosi suv rejimini tartibga soladi, sel va toshqin suvlarini jamg‘aradi. 1940-1951 yillar davomida qurilib, foydalanishga topshiriladi. Kattaqo‘rg‘on suv omborining asosiy inshooti kompleksi suv chikarg‘ichli tugon, suv keltiradigan va suv oqib ketadigan kanallardan iborat. 1941-yilda uzunligi 4 km balandligi 28 m tuproqtugon kutariladi (keyinchalik to‘g‘on balandligi 31.5 mqa yetkazildi). Suv omborining xajmi yildan- yilga oshirib boradi va 1945- yilda loyixada ko‘rsatilgan miqdori – 662 mln.m³ ga yetkazildi. Uzunligi 28 km, suv sarfi 45m^{3\}s suv keltiruvchi kanal rekonstruksiya qilinib, uning suv o‘tkazish imkoniyati 100 m^{3\}s ga yetkazildi, o‘zani to‘g‘rilanib, kengaytirildi va o‘zanga beton to‘shama yotqazildi. Kattaqo‘rg‘on suv ombori suv bilan Samarqand, Buxoro viloyatlaridagi 94 mingga sug‘oriladi va 150 mingga yerning suv ta‘minoti yaxshilangan.

Kattaqo‘rg‘on suv ombori suv kanali bilan qoradaryo quyiladi. Suv omborida baliqchilik tez rivojlanadi, yiliga o‘rta xisobida 240 -250 ming t balik ovlanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Справочник и адрес календарь Самаркандской области. Типография «Товарищества» 1903 год. стр. 17
2. И. Бекмуродов. “Справочник Каттакургана”, Ташкент 1968.
3. “Самаркандская область”. Справочник. 10 выпуск. Самарканд – 1912.
4. Иззат Бекмуродов. Каттақўрғоннинг қисқача тарихи. “Зарафшон” нашриёти, Самарқанд – 1993.
5. <https://uzbekistanfaq.ru/dostoprimechatelnosti-kattakurgana>